

UMUMTA'LIM O'QUV YURTLARIDA HARBIY-VATANPARVARLIK VA OMMAMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI REJALASHTIRISH VA OLIB BORISH

Sh.Tilavoldiyev

R.Madaliyev

Farg'onan davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lism o'quv yurtlarida o'quvchi yoshlarning harbiy-vatanparvarlik va ommamaviy-mudofaa ishlarini rejalashtirish va uni tashkil etish tartibi va bu ishlarda o'qituvchilarining vazifalari to'g'risida so'z yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *Harbiy-vatanparvarlik, ommamaviy-mudofaa ishlari, rejalashtirish, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, pedagogik jamoa, ma'naviy-ruhiy, harbiy-amaliy, o'quv-tarbiyaviy jarayon, perspektiv, yillik va oylik rejalashtirish.*

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiylar tarkibiy bir qismi bo'lib, u umumta'lism o'quv yurtlarida ma'lum bir tizimlar asosida olib boriladi.

Bu tizimning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan: yoshlarni vatan himoyasiga ma'naviy-ruhiy, umumta'lism, siyosiy jihatdan tayyorlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga imkon beruvchi fanlar asoslarini o'rghanish;

Ikkinchidan: O'zbekiston qonunlarida ko'rsatib o'tilgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik;

Uchinchidan: maktabda harbiy-amaliy xususiyatga ega bo'lgan ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bo'yicha sinfdan tashqari maxsus ishlar;

To'rtinchidan: o'rta maxsus bilim yurtlari, «Vatanparvar» va Yoshlar tashkilotlari kuchi bilan yoshlar markazlari klublari va mudofaa-sport sog'lamlashtirish oromgohlarida tashkil etiladigan o'quvchi yoshlarni maktabdan tashqari harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi;

Beshinchidan: o'rta maxsus bilim yurtlariga o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga jamoatchilik, oila, "Vatanparvar", yoshlar ittifoqi va boshqa sport tashkilotlari tomonidan yordam.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi tarkibiy qismlari bir-birlari bilan o'zaro uzviy bog'langandir.

Shunday ekan, harbiy-vatanparvarlik tizimi -bu turli tadbirlarning majmui, ularni tashkillashning shakl va uslublari, mazmuni, shuningdek, Yoshlarni Ona-Vatanni himoya qilish kabi, o'zlarining muqaddas burchlarini bajarishga tayyorlashda yoshlarga bilim berish va ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish demakdir.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sistemasining samaradorligi, umumiylar pedagogik va ular bilan bog'langan bu tarbiyaning o'ziga xos tamoyillarini tartibli ravishda amalga oshirilishiga bog'liq. "Tamoyil" deganda, biz, o'quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan va ularni shakl, uslub, mazmun va tashkil etilishini qamrab olgan tayanch qoidalarni tushunamiz.

Shunday qilib, harbiy-vatanparvarlik va ommamaviy-mudofaa ishlarini rejalashtirishda, tajribalar va ilmiy tadqiqotlar ko'rsatayotganidek, tarbiyaning umumiylar, umumpedagogik va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining o'ziga xos tamoyillariga tayanish lozim.

Biz umumiy tamoyillarga boshqarish va koordinatsiyalash, turg'unlik va o'sish, jadallashtirish va ommalashtirish, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini modellashtirishni kiritamiz.

Umumpedagogik tamoyillar orasida har biy-vatanparvarlik tarbiyasi majmuini muvaffaqiyatli tuzish uchun quyidagilarni ajratib ko'rsatish muhimdir: ta'lim berish va tarbiyalash, o'quv va o'qishdan tashqari ishlarni o'zaro aloqadorligini, o'quv-tarbiya jarayonlarini, ob'ekt va subyektlarini birligi va o'zaro bog'liqligi, ularni boshqa fanlar bilan bog'liqligi va boshqalar.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini samaradorligi tarbiyaning umumiy tamoyillarini amalgalashirish bilan ham ta'minlanadi.

Ular quyidagilardan iborat:

- maqsadga yo'nalishligi va bosqichma-bosqichligi, har tomonlama yondashish, yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, jamoa orqali tarbiya, o'quvchi shaxsini hurmat qilish bilan talab qilishni birga olib borish, bolalarni tarbiyalashda o'quv yurtining, oila va jamoatchilikni o'zaro aloqalari va boshqalar;

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini o'ziga xos tamoyillariga quyidalar kiradi:

- o'quvchilarning Vatan himoyasiga tayyorgarliklari va intilishlarini shakllantirishga har tomonlama yondoshish;

- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining umumiyligi va uzlusizligi;

- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining manfaatlari uchun tarbiyani turli foydali-jamoatchilik faoliyat turlari bilan birga olib borish;

- O'zbekiston Qurolli Kuchlari faxriylari va jangchilari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatish;

- o'quvchilarni, tuzilishi va mohiyati jihatdan harbiy xizmat xususiyatlarini o'z ichiga olgan faoliyat turlariga jalb qilishdir.

Shunday ekan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi, bir qator xususiyatlarga ega ekanligini inobatga olib, uni rejalashtirishda, rejalashtirishni nafaqat yaxlitligini, balki uni turg'unligini ham ta'minlovchi talablarni hisobga olish kerak.

Fuqaro tarbiyasida, faqat pedagogik jarayon nazariyasi emas, balki uning amaliyoti ham murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu yo'nalishda aniq natijalarga erishish uchun, pedagogik jamoalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tadbirlarini rejalashtirishga qunt bilan va jiddiy tarzda yondashishlari kerak.

Perspektiv, yillik va oylik rejalashtirishni amalgalashirishga oshirayotgan o'rta ta'lim o'kuv yurtlarining tajribasi diqqatga sazovordir.

Perspektiv rejalashtirish deganda, biz o'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o'rta maxsus bilim yurtidagi butun ta'lim davriga mo'ljallangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkiliy shakl va uslublari, mazmun va vazifalarini belgilashni tushunamiz. Perspektiv rejalashtirish deganda, biz o'quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o'rta maxsus bilim yurtidagi butun ta'lim davriga mo'ljallangan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkiliy shakl va uslublari, mazmun va vazifalarini belgilashni tushunamiz.

Bu yerda o'quvchilarni faqat yosh xususiyatlari emas, balki u yoki bu sinfdagi ta'limgazmuni, uning xususiyatlari, o'quvchilarga tarbiyaviy ishlarni ta'sir darajalari, bilim yurtining turi va uning atrofidagi ijtimoiy muhit ham hisobga olinishi kerak.

Perspektiv rejalshtirishning maqsadi-harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlarning barcha shakl va uslublarini mafkuraviy yo'naliшини та'minlashdan iboratdir. Qisqacha aytganda, bu o'quvchilarni Vatan himoyasiga tayyorlash borasidagi barcha tarbiya va ta'limgazlarni samaradorligini oshirishdir.

Perspektiv rejalshtirish bizga qanday imkoniyatlar berishi mumkin?

Birinchidan, u sinf rahbariga va boshqa tashkilot vakillari tomonidan aynan bir xil bo'lgan tarbiyaviy ishlarni o'tkazilish ehtimolini oldini oladi. Qolaversa, jamoatchilik va o'quvchilarni umumiy harakatlarini oldindan birlashtirishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, tarbiyaning eng ko'p qo'llaniladigan shakllaridan foydalanishda, o'qituvchi oldiga perspektiv rejalarini mazmun jihatdan boyitish zaruriyatini qo'yadi.

Masalan, o'qituvchi 4-sinfda harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi suhbatlarda qanday vazifalar hal etilganligini bila turib, 5-6 sinflarda xuddi shunday suhbatlar mazmunini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, harbiy-vatanparvarlik ishlari samaradorligini aniqlashda, bunday rejalshtirish, qanday vositalar bilan erishilganligini belgilashga va kelgusida o'quvchilarni ma'lum bir tarkibi bilan harbiy-vatanparvarlik sistemasini muvaffaqiyatli tuzish imkoniyatini yaratadi. Bu ayniqsa, endigina sinf rahbari etib tayinlangan o'qituvchilar uchun juda muhimdir. Chunki, ularda perspektiv reja va uni amalga oshirish yo'l-yo'rqliari bo'lmasligi, ular o'tgan yillardagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmasligi mumkin. Ular uchun o'quvchilarni vatanparvarlik tarbiyasining u yoki bu darajasiga qanday vositalar bilan erishilganligi bo'yicha xulosalar chiqarish imkonni bo'lmaydi, bu esa ushbu yo'nalihsida keyingi vazifalarni murakkablashishiga olib keladi.

To'rtinchidan, perspektiv rejaning bo'lmasligi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini, tarbiyaning boshqa turlari bilan hamkorligini amalga oshirish yo'lida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Beshinchidan, perspektiv rejaning bo'lmasligi, vatanparvarlik tarbiyasi kabi muhim ishda subyektiv holatlarni yuzaga keltiradi. Chunki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi xususiyatlarini belgilash faqat bir o'qituvchiga berib qo'yilgan bo'lib, bu esa o'z navbatida, bilim yurti ma'muriyati, pedagogik jamoa tomonidan bilim yurtida olib borilishi kerak bo'lgan muhim mafkuraviy ishlarga rahbarlik qilishning susayishiga olib keladi va yana bundan tashqari, perspektiv rejaning bo'lmasligi ta'limgazmuni muassasalari tomonidan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga rahbarlik qilish darjasini pasayishini keltirib chiqaradi. Bu esa, bilim yurtida olib borilayotgan vatanparvarlik tarbiyasi ishlari haqida obyektiv xulosalar chiqarish imkonini bermaydi.

Rejalshtirishning navbatdagi turi - bu yillik rejalshtirishdir.

Yillik rejalshtirish deganda, biz tadbirlar bajarilishi lozim bo'lgan vaqt va uning javobgar shaxslari ko'rsatilib, ma'lum bir o'quv muddatiga mo'ljallangan tashkiliy shakl va uslublar, mazmun va vazifalarning yig'indisini tushunamiz.

Amaliyotda, harbiy-vatanparvarlik ishlarni boshqa ishlarda bo'lgani kabi chorak, yarim chorak, yillik rejalshtirish odat tusiga kirgan. Harbiy-vatanparvarlik ishlarni o'ziga xosligi

shundan iboratki, ko‘p hollarda ba’zi bir tadbirlarni amalgalash uchun, faqat bilim yurtini emas, balki, bir qator boshqa tashkilotlarni ham harakatlari kerak bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham, bilim yurtida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yillik rejasi tuzilib, unda oldindan har bir tashkilot va muassasalarining o‘rniali belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

U quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- o‘quv jarayonida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini faollashtirish;

- ommaviy harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi (jasorat darslari, kechalar, harbiy mavzudagi kinofestivallar, harbiy kitoblar haftaligi, uchrashuvlar, harbiy texnikalar bilan tanishtirish, harbiy qo‘shiqlar ko‘rigi va boshqalar);

- o‘quvchilarni jangovar va mehnat shuhrat shuhratiga joylariga uyushtiriladigan sayohatlarida qatnashish;

- jangovar shuhrat xonasi, muzeylardagi tadbirlar;

- o‘quvchilarning harbiy-texnik tayyorgarligini takomillashtirish (to‘garaklar, klublar, harbiy-sport turlaridan musobaqalar, harbiy-sport bayramlari tashkil etish);

- harbiy-jismoniy tayyorgarlik (musobaqalar, o‘yinlar, uzoqqa yugurishlar, «Alpomish» va «Barchinoy» test sinovlari);

- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha faol o‘quvchilar bilan ishlash

- (o‘qish haqida suhbatlar, yig‘ilishlar, tajriba almashtirish harbiy konferensiyalar);

- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha ota-onalar bilan ishlash (ota-onalar konferensiyalarini o‘tkazish, to‘garak va seksiyalarni boshqarishga ota-onalarini jalb qilish, Vatanni ongli ravishda himoya qilishga o‘quvchilarni tayyorlash borasidagi oilaviy tarbiya tajribalarini o‘rganish).

Oylik rejalashtirish bu- tarbiyaviy jarayonning aniq vazifalari va mazmunlarini belgilash, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini u yoki bu shakliga ta’sir etuvchi aniq bir holatlarni hisobga olishdir.

Oylik rejalashtirish harbiy-vatanparvarlik ishlarini birlamchi rejasi bo‘lib, unda quyidagi tadbirlar o‘z aksini topishi kerak:

Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularga ruhiy ta’sir etish va ularni Vatanni sevish kabi xislatlariga o‘rgatish. Biroq, ommaviy amaliyotda aniq bir tarbiyaviy ishlarning mazmun va uslublari bo‘yicha ko‘p savollar, uning tashkilotchilari diqqat e’tiboridan chetda qolmoqda. Buning sababi quyidagilardan iborat.

Bilim yurtida aniq vaqtida o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishga salbiy yondashishni yuzaga kelishi, bunday rejani shart emas deb hisoblashlari va ko‘p rahbarlarni nazoratni susaytirganliklari shunday vaziyatni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, ko‘p o‘qituvchilarda tarbiyaviy ishlarini olib borishda «o‘zi uchun» xomaki rejalarini tuzilgan bo‘ladi. O‘qituvchilar ko‘p vaziyatlarda vazifalarni belgilab olmaydi, buning oqibatida esa ular tarbiyaviy ishlar mazmunini to‘la tushunib yetmaydilar.

O‘quvchi tarbiyasiga har tomonlama yondashish, eng avvalo, shundan iboratki, bunda bilim yurtining tarbiyaviy tadbirlari o‘quvchi shaxsini barkamol etib shakllantirishga, yangi insonni yuksak ijtimoiy sifatlarini yaratishga imkon beruvchi barcha omillarni yaxlit bir majmuaga birlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bu majmua tarbiyaning barcha turlari yosh inson ma’nnaviy qiyosasini shakllantiradi va bo‘lajak Vatan himoyachisi uchun zarur bo‘lgan sifatlarni yuzaga keltiradi (ishlab chiqaradi).

O'zbekiston Respublikasining "Chaqiruvgacha qadar boshlang'ich tayyorgarlik Nizomi" da CHQBT rahbarining amaliy vazifalari belgilab berilgan. U bilim yurtida bevosita chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik sifatiga, o'quv qurollari, kichik kalibrli miltiklar, o'q-dorilarni saqlash va ularni hisobini yurgizishga, jangovar texnika, qurollar va o'q-dorilar bilan mashg'ulotlar o'tkazilganda ko'rsatilgan xavfsizlik qonun-qoidalariga qat'iy ravishda rioya qilishga javobgardir.

U bilim yurtida o'quv va darsdan tashqari vaqtarda shaxsan CHQBT bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qiladi va o'tkazadi, shuningdek, harbiy ish asoslarini o'rganish bo'yicha to'garaklarga rahbarlik qiladi. CHQBT rahbari vazifalari qatoriga yana CHQBT xonasi, qurol saqlash xonasi, o'q otish tiriga rahbarlik qilish, CHQBT bo'yicha o'quv moddiy bazasini yaratish va takomillashtirish kabi vazifalar kiradi.

O'rta maxsus bilim yurtlarida haqli ravishda CHQBT rahbarini o'quvchilar bilan harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa ishlarini olib borishda, ularni vatan himoyasiga, o'smirlarni esa bevosita harbiy xizmatga tayyorlashda asosiy tashkilotchi va tashabbuskor deb hisoblashadi. U bilim yurtida "Temurbeklar" va "Shunqorlar" harbiy-sport o'yini va boshka harbiy-sport bayramlari tadbirlariga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi, shuningdek, jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan birgalikda o'quvchilarni "Alpomish va Barchinoy" maxsus test sinovlarini topshirishga tayyorlaydi va uni tashkil etadi. CHQBT rahbari o'quv tarbiyaviy ishlarni maktab va darsdan tashqari ishlar tashkilotchisi, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sinf rahbarlari, bilim yurtining pedagogik jamoasi bilan uzviy hamkorlikda olib boradi.

Yoshlarni O'zbekiston Respublikasini himoya qilishdek davlat ahamiyatiga ega bo'lган muhim vazifani bajarishga tayyorlashni kuchaytirish uchun, CHQBT rahbari, faqat chuqur harbiy bilimga, yuksak axloqiy-siyosiy sifatlarga ega bo'libgina qolmay, balki o'z shogirdlariga bu bilim va sifatlarni bera olishi, o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitishning ilg'or uslublarini ham o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Yoshlarni Vatan himoyasiga har tomonlama tayyorlashni faqat CHQBT mashg'ulotlari bilan chegaralab qo'yish kerak emas. Bu o'quv yurtining barcha pedagogik jamoasi uchun davlat ahamiyatiga ega bo'lган mas'uliyatlari vazifadir.

O'quvchilarni Vatan himoyasiga ma'naviy-axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorgarligi, bilim yurtlarida eng avvalo o'quv jarayonida, qolaversa, tarbiyaviy-o'quv ishlarning boshqa turlarida ham amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham, har bir o'qituvchi o'rganilayotgan fan bilan uzviy bog'langan holda, O'zbekiston Prezidenti va hukumatining xalqaro va ichki siyosatini, manzlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlar qudratini oshirishdagi muammolarni to'g'ri tushuntirib berishi, Qurolli Kuchlarning amaliy vazifalarini ko'rsatib berishi, Qurolli Kuchlarga, harbiy xizmat va harbiy kasblarga muhabbat tuyg'usini singdirish, bo'lajak Vatan himoyachisiga zarur bo'lган ma'naviy-axloqiy va jangovor sifatlarni shakllantirishi kerak.

Umumta'lim fanlari, darsdan tashqari tarbiyaviy-o'quv ishlari bilan uzviy bog'liqlikda o'quvchilarda keng dunyoqarashni, ijtimoiy hodisalar va voqealarni to'g'ri tahlil qilish va baholash kabi sifatlarni shakllantiradi, shuningdek, ularda o'z Vatanlariga bo'lган cheksiz muhabbat va sadoqat tuyg'ularini mustahkam poydevorini yaratadi.

Tarix, jamiyatshunoslik, adabiyot darslari o'quvchilarni jamiyat taraqqiyoti qonunlari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantiradi, ularda Vatanimiz dushmanlariga nafrat, xalqimizning buyukligi va qudratiga o'lmas ishonch tuyg'ularini shakllantiradi.

Matematika, fizika, kimyo, biologiya mashhg'ulotlarida o'quvchilar zamonaviy jangovar texnika va qurollarni, ommaviy qirg'in qurollaridan saqlanish usullarini o'zlashtirish uchun kerak bo'lgan keng bilim asoslarini o'rghanadilar. O'smirlarni harbiy xizmatga jismoniy jihatdan tayyorlashda jismoniy tarbiya darslarining ahamiyati beqiyosdir. O'quvchilarni «Alpomish va Barchinoy» maxsus testlarini topshirishga tayyorlash uchun bilim yurtlarida yagona uslubiy kengash tuzilib, uning tarkibiga CHQBT rahbari va jismoniy tarbiya o'qituvchilari kiradilar. Ishning shu tarzda maqsadga yo'naltirilgan holda olib borilishi natijasida, yuqori sinf o'quvchilari harbiy-vatanparvarlik va amaliy-sport turlari bo'yicha katta natijalarga erishadilar.

Yuqori sinf o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi uchun, ayniqsa, CHQBT bo'yicha mashhg'ulotlar katta imkoniyatlarga egadir. CHQBT mashhg'ulotlari davomida o'quvchilarda boshlang'ich harbiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishi amalgalashiriladi, bular esa Qurolli Kuchlarga, harbiy xizmatga bo'lgan hurmat, zamonaviy jangovar texnika va qurollarni o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarni Vatan himoyasiga har tomonlama tayyorlash, faqat o'quv jarayonida emas, balki darsdan so'ng va harbiy-vatanparvarlik ishlarini boshqa turlarida ham davom etishi juda muhimdir. Xuddi shu erda o'quvchilarni har biy-vatanparvarlik tarbiyasini mazmun, shakl va uslublarini takomillashtirishga doimiy ravishda diqqat-e'tibor ajratish kerak.

O'quvchi yoshlarni O'zbekiston Respublikasiga sadoqat va muhabbat ruhida, harbiy xizmat burchini puxta o'tashga tayyorlash, Ona Vatan himoyasi uchun shaxsiy javobgarlik tuyg'usida tarbiyalash- har bir O'zbekiston o'qituvchisining muhim bo'lgan muqaddas vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov.A, Tilavoldiyev.SH, "CHaqiriqqacha yoslar tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi", Farg'ona, 2003 yil.
2. Saidov. I.M, Tilavoldiyev.SH.X, Xaydaraliev.X, "Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari", Farg'ona, 2021 yil.
3. Alieva, S. A. Nauchno-pedagogicheskie osnovы voenno-patrioticheskogo vospitaniya starsheklassnikov / S. A. Alieva. - M., 2012.
4. Sereda, V. A. Patrioticheskoe vospitanie studentov pedagogicheskix vuzov vo vneuchebnoy deyatelnosti :. - M., 2007.